



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**ZAMONAVIY HAMDA AN'ANAVIY IQTISODIY TAHLIL
USULLARINI XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY
SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA QO'LLANILISHINING ALOHIDA
XUSUSIYATLARI.**

Umurova Mohira Askarboy qizi

SamISI tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridan bo'lgan xizmatlar sohasida qo'llaniladigan zamonaviy hamda an'anaviy iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanishning muhim xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Bu tahlillar korxona samaradorligida muhim ahamiyatga ega bo'lib, xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi.*

Kalit so'zlar. *An'anaviy tahlil, zamonaviy tahlil, moliyaviy tahlil, funksional tahlil, DSGE ekonometrik tahlil, texno-iqtisodiy tahlil.*

Kirish “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish sharoitida xizmatlar sohasi bevosita faoliyat davomida sanoat sahasiga nisbatan kam darajada tabiat ifloslanishiga olib kelishi, biznes loyiha sifatida yo'lga qo'yilishida kam miqdordagi investitsiya talab qilishi hamda risk darajasining nisbatan pastligi ushbu tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlari bo'lsa, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida aholi yashash farovonligining oshishi va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi xizmatlar sohasini rivojlantirish zaruratini vujudga keltiradi.

Qaysi bir sohani olib qaramaylik albatta ushbu sohaning rivojlanish dinamikasini o'tgan hamda joriy holatni baholash hamda ularni taqqoslash orqali amalga oshirish mumkin. Bu esa albatta iqtisodiy tahlil jarayoni hisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlarning glaballashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy holatning muntazam o'zgarib turishi hamda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim instrumenti sifatida tezkor hamda aniq axborot va tezkor tahlil natijalarini qaralishi iqtisodiy tahlil jarayonini ham rivojlanishiga, yangi tahlil turlarini vujudga kelishiga olib keldi.

Bundan kelib chiqadiki bugungi iqtisodiyotda ikki guruh zamonaviy iqtisodiy tahlil turlari hamda an'anaviy iqtisodiy tahlil turlari ishlatilib kelinmoqda (1-rasm).



1-rasm. Shakllanish davriga ko'ra iqtisodiy tahlil turlari.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

An'anaviy iqtisodiy tahlil turlari sifati iqtisodiy tahlil vujudga kelishi bilan dastlabki bosqichlarda shakllangan iqtisodiy tahlil turlari hisoblanadi. Ushbu tahlil turlariga moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, funksional qiymat tahlili, investitsiyalar tahlili, omilli tahlil va shu kabilarni kiritish mumkin.

Ushbu tahlil turlarining barchasini bir-biriga o'xshash hamda farqli jihatlari mavjud.

Moliyaviy tahlil – asosan korxonaning umumiy moliyaviy holatini baholashga xizmat qilib, tahlil natijalari bir vaqtni o'zida ham ichki ham tashqi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Boshqaruv tahlili – korxona faoliyati ichki jihatlari, xarajatlar, kalkulyatsiya, kadrlar harakati va shu kabi boshqa jihatlar muntazam tahlil qilinib, tahlil natijalari faqatgina ichki axborot foydalanuvchilariga taqdim qilinadi.

Funksional qiymat tahlili – korxonada sodir bo'layotgan har bir ijtimoiy-iqtisodiy jarayon natijalarini umumiy moliyaviy natijaga ta'sir doirasi o'rganiladi.

Omilli tahlil – aniqlangan har qanday korxonaning moliyaviy ko'rsatkichining dinamik o'zgarishiga omillar ta'siri baholanadi.

Zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari sifatida esa texno-iqtisodiy tahlil, dinamik-stoxastik tahlil, DSGE ekonometrik tahlil, tasodifiy kutilmalar tahlili, korrelyatsion-regression tahlil hamda RBS tahlili kabi turlarni qarash mumkin.

Texno-iqtisodiy tahlil – yangi kiritilgan texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishda foydalaniladi. Korxonalarda xarajatlar asosiy ikki guruhni capital xarajatlar hamda operatsion xarajatlarni tashkil qiladi. Texno-iqtisodiy tahlil asosan capital xarajatlar samaradorligini baholashga xizmat qiladi³³.

Dinamik-stoxastik tahlil turi umumiy muvozanatni modellashtirishning makroiqtisodiy usuli bo'lib, ko'pincha pul-kredit va fiskal organlar tomonidan siyosat tahlili, tarixiy vaqt seriyasi ma'lumotlarini tushuntirish, shuningdek, kelajakdagi prognozlash maqsadlari uchun qo'llaniladi. Dinamik: joriy tanlovlarning kelajakdagi noaniqlikka ta'siri modellarni dinamik qiladi va makroiqtisodiy natijalarni shakllantirishda agentlarning kutishlariga ma'lum bir ahamiyat beradi. Stokastik: Modellar tasodifiy zarbalarning iqtisodiyotga o'tkazilishini va natijada iqtisodiy tebranishlarni hisobga oladi³⁴.

DSGE iqtisodiy tahlil – ekonometrik modellashtirish, iqtisodiy o'sish va biznes tsikllari, shuningdek, siyosat ta'siri va bozor zarbalari kabi iqtisodiy hodisalarni

• 33 [Plosser, Charles](#) (25 May 2012). ["Macro Models and Monetary Policy Analysis"](#). Bundesbank / Federal Reserve Bank of Philadelphia Research Conference. Archived from [the original](#) on 17 October 2020. Retrieved 3 April 2018.

• 34 [Mitchell, William](#) (29 May 2018). ["ECB research provides a withering critique of mainstream macroeconomics"](#). Retrieved 29 May 2018.





postulatsiya qilish uchun umumiy muvozanat nazariyasi va mikroiqtisodiy tamoyillarni qulay tarzda qo'llaydi³⁵.

RBC tahlili neoklassik o'sish modeliga asoslanadi, moslashuvchan narxlar farazi ostida, iqtisodiyotdagi haqiqiy zarbalar biznes tsiklining tebranishlariga qanday olib kelishi mumkinligini o'rganadi.

Ishlab kelayotgan zamonaviy hamda an'anaviy iqtisodiy tahlil turlarining har biri xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatida aniq bir masalani yechishga hamda ushbu masala bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xizmat ko'rsatish korxonalarida moliyaviy tahlil turining qo'llanilishi xizmat ko'rsatish korxonalarining aktivlari hamda passivlari holatini baholashga (uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, joriy aktivlarning jami aktivlardagi ulushi, asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarning eskirish, yaroqlilik koeffitsientlari, aktivlarning daromadlilik, natijaviylik hamda rentabellik ko'rsatkichlari, korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik, o'z mablag'lari naqdligi, o'z mablaglari hamda qarz mablag'larining daromadlilik, rentabellik hamda natijaviylik ko'rsatkichlari), korxonaning daromadlari, xarajatlari va foyda turlarini baholashga, korxonaning to'lovga qodirlik darajasi (mutloq to'lovga qodirlik, oraliq to'lovga qodirlik hamda umumiy to'lovga qodirlik ko'rsatkichlari), moliyaviy mustaqillik, moliyaviy qaramlik hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini baholashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Котлер. Ф. Основы маркетинга. Москва: Прогресс, 1993
2. Ochilov.I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati SamISI- 2010y.
3. Q.J. Mirzayev, T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov, G'.S.Mustafoev, E.S.Fayziyev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" darslik 2022y.
4. Safarov Farxod Anvarovich "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy – iqtisodiy samaradorligini oshirish". Iqtisod fanlari nomzodi aftoreferati SamISI – 2023y.

• ³⁵ Storr, Virgil Henry; Coyne, Christopher J.; Boettke, Peter J., eds. (2016). *Revisiting Hayek's Political Economy (Advances in Austrian Economics)*. USA: Emerald Group Publishing Limited. [ISBN 978-1785609886](https://doi.org/10.1016/B978-1-78560-988-6).

•

